

## TALABALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

**Xakimova Marxabo O'raqovna**  
**O'zbekiston – Finlandiya Pedagogika instituti**  
**Maktabgacha ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim**  
**pedagogikasi va psixologiyasi kafedrası**  
**o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadriyatlarni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash o'ta muhim ahamiyat kasb etishligi haqida talabalarga kengroq tushuncha bermog'imiz lozim. Ta'lim va tarbiya berish asosida biz farzandlarimizga va talabalarga doim urf-odat va qadriyatlarimizni ular ongiga singdirib borishimiz zarurligini ta'kidlab o'tish mumkinligi haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, axloq, odob, inson, bilim, milliy qadriyatlar, ma'naviyat, talaba, yosh, xalq, inson.

## РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ВОСПИТАНИИ СТУДЕНТОВ

**Аннотация:** В этой статье мы должны дать студентам более широкое представление о том, как сохранение ценностей и их соблюдение становится чрезвычайно важным. Это говорит о том, что, основываясь на образовании и воспитании, мы можем подчеркнуть нашим детям и студентам, что мы всегда должны прививать наши традиции и ценности в их сознание.

**Ключевые слова:** образование, воспитание, нравственность, этикет, человек, знания, национальные ценности, духовность, ученик, возраст, народ, человек

## THE ROLE OF NATIONAL VALUES IN THE EDUCATION OF STUDENTS

**Annotation:** In this article, we should not give students a broader understanding of the importance of preserving values and living according to them. On the basis of education and upbringing, it is argued that we can emphasize to our children and students the need to constantly instill our traditions and values in their minds.

**Key words:** education, upbringing, morality, decency, man, knowledge, national values, spirituality, student, age, people, man.

O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan bebaho qadriyatlari bugungi kundagi turli zararli ta'sirlardan saqlanishimiz joiz. Chunki, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo'lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlar egasi bo'lib qolishimizda qadimiy an'ana va qadriyatlarimizning o'rni beqiyos. Qadriyatlarni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash o'ta muhim ahamiyat kasb etishligi

haqida talabalarga kengroq tushuncha bermog'imiz lozim. Ta'lim va tarbiya berish asosida biz farzandlarimizga va talabalarga doim urf-odat va qadriyatlarimizni ular ongiga singdirib borishimiz zarurligini ta'kidlab o'tish mumkin. Qadriyatlarni qadrlagan ularni anglagan har qanday talabaning dunyoqarashi ortadi.

Yer yuzidagi har bir davlat, har bir millat faqat uning o'ziga xos bo'lgan an'ana va qadriyatlari bilan alohida ajralib turadi. Tabiiyki, har qaysi xalqning bebaho boyligi bo'lgan qadriyat va an'analar bir-ikki kun ichida paydo bo'lib qolmagan. Insoniyatning necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, biror-bir narsaning an'anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab qiladi. Yillar, asrlar davomida muayyan qarash, odat, tushuncha, tajribalar zamonlar, avlodlar sinovidan o'tadi, sayqal topib boradi. Agar ular keyingi avlodlar tomonidan ham qabul qilinsa, davom ettirilib, urf-odatga aylansa, demakki, endi ularni milliy an'ana va qadriyat deb atash mumkin bo'ladi.

Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlar deyiladi. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

O'zbek xalqining asrlardan-asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda asta-sekin shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga ehtirom, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi. Bularning barchasi oila va ta'lim tashkilotlarida boyitilib boriladi.

Xalqimiz juda qadim zamonlardan boshlab ko'chmanchilikdan o'troq hayot kechirishga o'tganlar hamda, shunday hayot tarziga odatlanganlar. Odamlar o'zi o'rnashib qolgan yerni, uning atrofidagi suv manbalarini qadrlashni, asrashni odat qilganlar. Chunki, mana shu yer va suv yordamida olinadigan hosil insonlarning rizqi, tirikchiligina muhim manbaya hisoblangan. Bunday o'troq hayot tarzi odamlarni jamoa bo'lib, bir-biriga yelkadosh bo'lib yashashga chorlagan. Mehnat qilishi mehnat mahsullarini o'zaro ayirboshlash orqali savdo munosabatlarining kirib kelishiga ham sabab bo'lgan. Shu tariqa qishloq xo'jaligi hamda shahar madaniyati yuksala borgan. Kishilarning o'zaro bir-biriga munosabatlari qadriyatlarni qadrlashga sabab bo'lgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Yurtimizda bunyod etilgan Samarqand, Qarshi, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Andijon, Marg'ilon, Termiz va Qo'qon singari o'nlab shaharlarning yoshi ming yillar bilan o'lchanadi bular bizning tarixiy qadriyatlarimiz sanaladi. Bu tarixiy qadriyatlarni avlodlarga saqlab etkazib kelmoqdamiz. Bu tarixiy shaharlarimiz nafaqat, bizning xalqimiz uchun balki, xorijiy davlat kishilari uchun ham mo'jizalarga boyligi bilan ajralib turadi.

Demoqchimizki, xalqimiz o'zi tug'ilib o'sgan yer-zaminini e'zozlashni bolaligidan o'rganib, his qilib o'sadigan millat sanaladi. Demak, xalqimizning o'z yurtiga cheksiz sadoqati, ehtiromi bilan bog'liq milliy an'ana va qadriyatlari uning boy tarixi bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek, xalqimizning kattalarga hurmat,

kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lish, hayo, ibo va mehr-oqibat, ahli ayolini oilasini asrash, maishiy turmushda poklikni yuksak qadrlash singari an'ana va qadriyatlari ham hayotning uzoq sinovlaridan o'tgan o'lmas ma'naviy merosimiz sanaladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy faoliyat fuqarolik jamiyatini qurishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishga ega ekanligi hech birimizga sir emas. Qadriyatlarni tiklash, ularni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, milliy o'zlikni anglash, milliy istiqlol g'oyasining tamoyillarini talabalar qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizga sadoqatli bo'lish ta'lim va ma'naviyat sohasidagi asosiy vazifalardan hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ashurov M.O. O'zbek xalqi tarbiya tizimi – Samarqand Ziyokor, 2003 y., 6-son, 16-24 b.
2. Yo'ldosheva Saodat Xalq urf – odatlar va an'analari. – Toshkent ijod dunyosi nashriyot uyi. 2003 y. 3-22 b.
3. Musurmonova O. Hayot va turmush dasturi. – T.: O'qituvchi, 1993
4. Ochil Safo Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari – T.; O'qituvchi, 1997 y. 3-bet.
5. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi – T.; O'zbekiston 2010 y. 5 – 108b.
6. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchi – mualliflar K.Hoshimov, S.Ochil – T.; O'qituvchi, 1995 y. 164b.
7. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya – T.; Fan. 2016 y. 118b.

## **TARBIYALANUVCHI GURUHLARDA IJOBIY XISLATLAR VA FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISHDA RIVOYATLARNING O'RNI**

**Shomuratova Nozima Baxriddin qizi**

**Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha ta'limda 6-7 yoshli bolalarni axloqiy tarbiyalashda rivoyatlarning o'rni va uning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Rivoyat, maktabgacha ta'lim, tarbiyalanuvchi guruh, bola, jamiyat, axloqiy tarbiya, "Ilk qadam" davlat dasturi, badiiy adabiyot

## **РОЛЬ НАРРАТИВОВ В ФОРМИРОВАНИИ ПОЛОЖИТЕЛЬНЫХ ЧЕРТ И КАЧЕСТВ В УЧЕБНЫХ ГРУППАХ**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль нарративов и их значение в нравственном воспитании детей 6-7 лет в дошкольном образовании.

**Ключевые слова:** Повествование, дошкольное образование, образовательная группа, ребенок, общество, нравственное воспитание, государственная программа «Первый шаг», художественная литература